

Navro‘z arafasida ichki qatnovlarga bayram chegirmalari

2021 3 Mart

Hurmatli yo‘lovchilar!

“Uzbekistan Airways” AJ 2021-yil 20-22 mart kunlari Navro‘z bayramini nishonlash munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun respublikaning barcha ichiki qatnovlariga chegirmalar e‘lon qiladi:

- individual yo‘lovchilar uchun - 30%;
- sayyohlik guruhlari (5 va undan ortiq kishi), maktab o‘quvchilari, kollej, litsey, OO‘Yu talabalari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa idoralar tizimi maxsus o‘quv yurtlari talabalari va tinglovchilari uchun - 40%;
- oila (2 va undan ortiq kishi, ya‘ni: er va xotin, er va xotin va ularning 18 yoshgacha bo‘lgan farzandlari, 18 yoshgacha bo‘lgan farzandlari bo‘lgan ota yoki 18 yoshgacha farzandlari bo‘lgan ona) uchun -50%;
- nafaqaxo‘rlar uchun - 50%;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun - 50%;
- 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun - 50%;
- 1941-1945-yillardagi urush davrida frontortida fidokorona mehnati va beg‘ubor harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar uchun - 50%;
- Chernobil AESidagi falokat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etganlar uchun - 50%.

| | |
|--------------------|------------------------------------|
| Yo'nalish | |
| Urganch - Farg'ona | Chipta sotib olish |

| | |
|--------------------|------------------------------------|
| Farg'ona - Urganch | Chipta sotib olish |
| Toshkent - Nukus | Chipta sotib olish |
| Nukus - Toshkent | Chipta sotib olish |
| Toshkent - Urganch | Chipta sotib olish |
| Urganch - Toshkent | Chipta sotib olish |
| Toshkent - Termiz | Chipta sotib olish |
| Termiz - Toshkent | Chipta sotib olish |

Kirib kelayotgan bayramingiz bilan!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvoz tilaymiz!